

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasinging falsafiy tahlili	33
--	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--

tizimining falsafiy jihatlari.....	106
------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 101.1

KAMBAG'ALLIK FENOMENINING JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI VA UNI QISQARTIRISH TIZIMINING FALSAFIY JIHATLARI**ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ФЕНОМЕНА БЕДНОСТИ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ И ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ СИСТЕМЫ ЕЕ СОКРАЩЕНИЯ****FORMS OF MANIFESTATION OF THE PHENOMENON OF POVERTY IN SOCIAL LIFE AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE SYSTEM FOR ITS REDUCTION****Abdillazov Farxodjon Muydinovich** 
mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Maqolada kambag'allik fenomeni va uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, kambag'allik fenomeni va uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari, mexanizmlari va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish tizimining falsafiy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы изучения феномена бедности и её проявлений в общественной жизни, механизмы бедности и её проявлений в общественной жизни, эффективность совершенствования системы социальной защиты, направленной на снижение бедности. Анализируются философские аспекты феномена бедности и её проявлений в общественной жизни, а также системы снижения бедности.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of the study of the phenomenon of poverty and its manifestations in social life, the mechanisms of poverty and its manifestations in social life, and the effectiveness of improving the social protection system aimed at reducing poverty. The philosophical aspects of the phenomena of poverty and its manifestations in social life and the system for reducing poverty are also analyzed.

Kalit so'zlar: kambag'allik fenomeni, jamiyat, ijtimoiy himoya, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, madaniyat, konseptual va aksiologik asos.

Ключевые слова: феномен бедности, общество, социальная защита, модернизация, инновации, социальный, индивид, механизм, технология, культура, концептуально-ценностная основа.

Key words: poverty phenomenon, society, social protection, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, culture, conceptual and axiological basis.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Zero, aholining ijtimoiy himoyasi va ularni qo'llab-quvvatlash - kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi, ayniqsa, chuqur iqtisodiy islohotlar jarayonida, jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan holda, kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasining genezisini tahlil qilar ekanmiz, uning ilmiy muomalaga XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kelganini ko'ramiz. Biroq, o'zbek xalqi ming yilliklar davomida ijtimoiy sohada boy tarixiy tajribaga ega bo'lib, jamoaviy birdamlik, o'zaro yordam va saxovat kabi qadriyatlar asosida aholini qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini rivojlantirib kelgan. Bu tarixiy tajribalar zamonaviy ijtimoiy siyosatning ma'naviy-axloqiy poydevorini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kambag'allik fenomeni va uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, kambag'allik fenomeni va uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari, mexanizmlari va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini

FALSAFA

takomillashtirishning samaradorligi masalalari Dj.Keyns, A.Marshall, D.Rikardo, A.Sen, M.Kremer, A.P.Aleksandrov, A.V.Karev, Ye.Ye.Rumyanseva, A.A.Razumov, B.Sh.Xusanov, B.K.G'oyibnazarov, D.M.Karimova, X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, N.M.Majidov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholini ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotining insoniy tamoyillar negizida shakllanishi va rivojlanishiida muhim ahamiyatga egadir. "Ijtimoiy himoya" tushunchasini ayrim faylasuf olimlar jamiyatning demografik barqarorligigini ta'minlash imkoni sifatida talqin qiladilar, xususan, O.V.Romashevning fikriga ko'ra «...bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayonining va ishchi kuchining takror ishlab chiqarish beto'xtovligini ta'minlashga xizmat qiladi». Olimning ushbu fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, bunday talqin fakat mehnatga layoqatli fuqarolarni nazarda tutib, aholining mehnatga layoqatsiz qismini qamrab olmaydi. Shuning uchun ham tushunchaning mohiyatini to'liq ochib bera olmagan.

Bunda aholini ijtimoiy himoya qilish ijtimoiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlaridagi muhim vazifaga aylanadi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilish deganda davlat tomonidan tizimlashtirilgan, aniq manzillashtirilgan moddiy ko'mak berib borish nazarda tutiladi. Olima Sh.Sodiqovanning fikricha ham, ijtimoiy himoyalash, qo'llab-quvvatlash davlat tomonidan kamag'allik chegarasida bo'lgan muhtoj aholiga ajratilgan moddiy yordamdan iborat. Ijtimoiy himoyalash davlat tomonidan barcha fuqarolar hayot darajasini munosib saqlashga qaratilgan chora-tadbir bo'lib, shu bilan bir vaqtda ijtimoiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgandir.

«Ijtimoiy himoya» tushunchasining bunday talqinini faqat bir tomonlama to'g'ri deb qabul qilish mumkin, biroq bu tushunchaning mohiyati yanada kengroq ekanligini e'tiborga olish lozim. Chunki ijtimoiy himoya tushunchasi faqat moddiy ko'mak bilan cheklanish emas, aks holda uning atamasini iqtisodiy himoya deb nomlasa ham bo'laverar edi. Ijtimoiy himoya, eng avvalo, insonni mehr, e'tibor, hamdardlik bilan muhofazalash tizimi degan birlamchi diskursiv talqinni ham ahamiyatli hisoblash kerak.

Bu tushunchani ijtimoiy munosabatlarning inson manfaatlarini himoyalash jarayonida yaxlitlik kasb etishidir, degan talqin doirasida izohlovchi yondashuv ham mavjud. Zero, insonni ijtimoiy himoyalash tizimi uni turli ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlardan muhofazalanishini kafolatlash majmui deb qarash ham mumkin. Aynan ana shu nuqtai nazar aksariyat xorijiy va milliy nazariyalar mazmunida ustuvorlik kasb etmoqda. Taniqli olim, akademik K.X.Abduraxmonov ana shu nazariy yo'nalishning hayotchanligini iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish zarurati bilan bog'liq tarzda asoslaydi. Uning fikricha, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyalashning har safar, o'zi amal kilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanishi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib borishi zarur.

Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi - ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda qolgan, kambag'allikdan aziyat chekayotgan aholi qatlamlariga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularning minimal hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan faollashtirishdir. Pirovardida, bunday toifadagi shaxslar o'zini o'zi mustaqil boshqara olish, iqtisodiy jihatdan o'zini ta'minlay olish va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish bosqichiga ko'tarilishi ko'zda tutiladi.

Kambag'allik fenomeni - bu faqat iqtisodiy yetishmovchilik emas, balki murakkab ijtimoiy, madaniy va psixologik oqibatlariga ega bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. U jamiyat hayotida bir nechta asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

Mutlaq kambag'allik - insonning eng zarur hayotiy ehtiyojlarini (ovqat, kiyim, boshpana) qondirish imkoniyatining yo'qligi.

Nisbiy kambag'allik - jamiyatning o'rtacha turmush darajasidan sezilarli darajada past hayot kechirish holati, bunda moddiy resurslar yetarli bo'lsa-da, ijtimoiy imkoniyatlar cheklangan bo'ladi.

Madaniy kambag'allik - ta'lim, madaniyat va axborot resurslariga yetarli darajada kira olmaslik, bu esa insonning ijtimoiy integratsiyasiga to'sqinlik qiladi.

Avloddan-avlodga o'tuvchi kambag'allik - ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar yetishmasligi tufayli kambag'allik holatining barqaror tarzda davom etishi.

Jamiyat taraqqiyotida kambag'allikning salbiy ta'siri nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki ijtimoiy muhitning beqarorligi, ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishi va ijtimoiy kapitalning pasayishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli, kambag'allikka qarshi kurash faqat moddiy yordam berish bilan cheklanmay, balki bandlikni ta'minlash, sifatli ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi kompleks choralarni o'z ichiga olishi zarur.

O'zbekistonning yangi ijtimoiy siyosati shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimini samarali tashkil etish orqali nafaqat iqtisodiy jihatdan nochor qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, balki kambag'allikning ildizlarini bartaraf etish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga to'laqonli integratsiyasini ta'minlash mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi va inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan strategiyalar asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Faylasuf olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoyalash jarayonining tizim yasovchi elementlari va manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- aholini qo'llash va moddiy ko'mak berish;
- barqaror iqtisodiy, siyosiy muhitni saqlash va jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy kataklizmlarning oldini olish omili deb yondashish;
- jamiyatda tabaqalararo muvozanatni saqlash uchun ehtiyojmand aholi uchun ijtimoiy ta'minotni yo'lga qo'yish;
- aholining kam ta'minlangan va kambag'al va qashshoq vakillarining bandligini ta'minlash;
- ko'makka muhtoj aholini subvensiyalar berish orqali ijtimoiy rag'batlantirish;
- kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogiron fuqarolar uchun ijtimoiy imtiyozlar yaratish.

Agar ijtimoiy himoya siyosiy tizim deb talqin etiladigan bo'lsa, uni alohida tashkillashtiruvchilari, siyosiy maqsadlari, bu holatni o'zgarishlardan saqlab turuvchi vositalari va ta'sir usullari bo'lishi talab etiladi. Shu boisdan ham, «ijtimoiy himoya – bu jamiytdagi iqtisodiy samaradorlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi alohida o'ziga xos iqtisodiy-siyosiy tizim» deb hisoblashga qo'shila olmaymiz. Bu talqin tarafdorlari ijtimoiy himoyani alohida tizim sifatida e'tirof etishlari ob'ektiv haqiqat bo'lsa-da, ammo ijtimoiy himoya tushunchasining kategorial mazmunini to'liq ochib bera olmaydi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash zarurki, har qanday davlat, garchi u rivojlangan davlatlar qarorida bo'lsa ham, odamlar ijtimoiy himoya qilish muammosini faqat davlat ko'magi orqali to'liq hal eta olmaydi. Shu boisdan ham, yangi O'zbekistonda aholini ijtimoiy qo'llash jarayoni uch mustahkam omil, ya'ni, davlat ko'magi, jamiyatning faol qo'llovi va ijtimoiy himoyaga olinuvchi shaxsning o'z potensialini rivojlantirishga tayanadi. Ilgari amal qilib kelingan ijtimoiy himoya konsepsiyasi asosan davlat ko'magi bilan cheklanar edi. Jamiyat faolligi omili esa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillarining muhtojlik holati xususida axborot berish bilan cheklanar edi.

Turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta'minot tizimi kabi omillarga bog'liq holda amal qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda shaxsiy daromad olishning kafolatlanishi bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi. Har bir toifani ijtimoiy himoya qilish tizimining immanent xususiyatlari bo'lib, u o'zining xarakterli belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, yangi O'zbekistonda tizimli tarzda yo'lga qo'yilayotgan ijtimoiy himoya – davlat va jamiyat tomonidan insonning to'laqonli va farovon hayot kechirishi va mehnat qilishi, kambag'allikni qisqartirish, kam ta'minlangan qatlamlarni ko'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlarni yaratishda shaxs salohiyati omiliga ham samarali tayangan holda maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish jarayonidir.

Yangi O'zbekistonda aholisining ko'makka ehtiyojmand qatlamlari vakillarini, xususan ayollarni ijtimoiy himoya qilishda yagona maqsad ko'zda tutiladi, ya'ni, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy og'ir ahvoldan chiqarish, kambag'allikni qisqartirishdan iboratdir. Lekin, shunga qaramasdan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning strategik xususiyatlari ham mavjudki, bu omil mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida alohida dolzarblik kasb etadi.

Davlat tuzilmalarining bu jarayonga innovatsion yondashuvining o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega ekanligi quyidagilarda ko'rinadi. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish borasida mamlakatimiz davlat tuzilmalarida olib borilayotgan chuqur islohotlar, ushbu jarayonda xotin-qizlarning o'zlari ham ishtirok etishlariga urg'u berilayotgani va har tomonlama rag'batlantirilayotgani bejiz emas. Xalq bilan muloqot qilish Yangi O'zbekistonda butun

FALSAFA

jamiyatimizni, xususan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning butunlay yangi, innovatsion modelini yaratish imkoniyatini berdi. Bunday innovatsion yondashuv asosida esa mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning muammolarini xonadonlarga kirib individual, manzilli o'rganilishi hamda har oila va shaxs imkoniyatlarini to'laqonli tarzda ro'yobga chiqarishni ijtimoiy harakatga aylantirish, inson omilini faollashtirish yotadi.

XULOSA

Jamiyat rivojida muhim o'rin egallovchi masalaga har qanday innovatsion yondashuv ma'lum qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Modernizatsiya jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga innovatsiyalarning kirib kelishi ularning o'zi ham qadriyat sifatida jamiyat ijtimoiy ongidan o'rin egallashiga sabab bo'ladi va ular qadriyatlar tizimining yangi elementlari safidan o'rin egallaydi. Mamlakat taraqqiyotidagi ushbu jarayon tizimning innovatsiya kontekstida yangilanishi, yoki uni innovatsion yondashuv asosida mavjud tizimni yangilash xisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud tizimga innovatsion yondashuvni shakllantirish jamiyatda asrlar davomida shakllanib kelgan tarixiy-milliy qadriyatlar, madaniy va ilg'or an'analardan voz kechishni nazarda tutmaydi, aksincha, jamiyat rivojiga xizmat qilayotgan qadriyatlar tizimini yangi innovatsion qadriyatlar bilan boyitish, bu ikkisini uyg'unlashtirishga erishish, ularning kishilar dunyokarashi tizimining tarkibiy qismiga aylanib borishi uchun imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. 49 б.
2. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - N.Y.: BN Publishing, 2008
3. Абрамова О. Формирование региональной политики преодоления бедности населения в современных условиях. Автореферат дис.кан.экономических наук. – Самара, 2015
4. Александров А. Актуальность решения проблем бедности. – Москва: Лаборатория книги, 2010. – 125 с
5. Дитон. А. Великий побег: Здоровье, богатство и истоки неравенства. – М.: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016
6. Карев А. Бедность населения как объект статистического изучения. – Москва: Лаборатория книги, 2010
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. – М: Эксмо, 2016 г. -1056 с